

## Sirdaryo viloyatida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2025-yil yanvar-iyun

dastlabki ma'lumot

- I. Chakana savdo tovar aylanmasi
- II. Ulgurji savdo tovar aylanmasi
- III. Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi
- IV. Metama'lumotlar
- V. Aloqador boshqa havolalar


### I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025-yil 1-iyul holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni **2 206** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **4** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **2 202** tani tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi **3 098,9** mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **109,6%** ga yetdi.


Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi **213,0** mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **122,2%**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **2 885,9** mlrd so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **108,8%**), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **325,1** mlrd so'mni (o'sish sur'ati **108,3%**) tashkil etdi.

#### Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, (%da)



Mavzuga doir havola: [Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(oylik\)](#)

### Yanvar-iyun oylarida chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (ulushi foizda)




## II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025-yil 1-iyul holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni **1 065** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **3** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **1 062** tani tashkil qildi.

Viloyat bo'yicha 2025-yilning yanvar-iyun oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **3 267,1** mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan **13,2** % ga o'sdi.

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi **2 998,8** mlrd so'mni tashkil qilib, 2024-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **107,9**%ga to'g'ri keldi. Viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi **91,8** % ni tashkil qildi.


### Yanvar-iyun oylarida ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)



Mavzuga doir havola: [Ulgurji savdo hajmi \(oylik\)](#)

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega Guliston sh. (**1,6** m.) va Sirdaryo (**14,6** m.), Sardoba (**6,3** m.), tumanlarida kuzatildi.

### Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o‘shish sur‘atlari (foizda)




Mavzuga doir havola: [Ulgurji savdo hajmi o‘shish sur‘ati \(oylik\)](#)

### III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2025-yil 1-iyul holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni **604** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni **1** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **603** tani tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-iyun oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi **1 923,1** mlrd so‘mga yetdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan **113,8** % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining **93,3** % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

### Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo hajmi o‘shish sur‘atlari, (foizda)





#### IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi – 2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuv va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

#### V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR

[Ulgurji savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ulgurji savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasi hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ovqatlanish korxonalarini savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ovqatlanish korxonalarini savdo hajmi o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)